

Date: 21st May-2025

**TANQIDIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA VA TA'LIM TIZIMIDAGI
O'RNI**

Ikromova Sitora Akbarovna
Osiyo xalqaro universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tanqidiy psixologiyaning pedagogika va ta'lim tizimidagi o'rni, vazifalari hamda muammolarni hal etishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. An'anaviy psixologik yondashuvlar ko'pincha o'quvchini shunchaki bilim oluvchi subyekt sifatida ko'rgan bo'lsa, tanqidiy psixologiya uni ijtimoiy ongli, faol va o'z haqiqatini shakllantiruvchi shaxs deb baholaydi. Maqolada Paulo Freire, Klaus Holzkamp, bell hooks va boshqa mutafakkirlarning qarashlari asosida zamonaviy ta'lim tizimidagi tengsizlik, madaniy kamsitish, gender stereotiplari va sinfiy tafovutlar tanqidiy tahlil qilinadi. Ta'lim tizimining faqat bilim emas, balki ongni uyg'otuvchi, jamiyatni o'zgartiruvchi kuchga aylanishi uchun tanqidiy psixologik yondashuvlarning dolzarbligi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: tanqidiy psixologiya, pedagogika, Paulo Freire, ijtimoiy ong, ta'limdagi tengsizlik, madaniy kontekst, gender, ozodlik, ijtimoiyadolat.

Kirish

Ta'lim har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy poydevoridir. Ammo ta'lim tizimi ham, ayni jamiyatdagi kuch tuzilmalarining, sinfiy farqlar va madaniy ierarxiyalarning aksidir. Traditsion psixologik yondashuvlar ko'pincha ta'limni neytral, texnik jarayon sifatida ko'rgan, o'quvchi shaxsini esa "passiv bilim oluvchi" deb talqin qilgan. Bunday yondashuv shaxsiy rivojlanishni ta'minlay olmaydi, balki mayjud ijtimoiy tengsizliklarni mustahkamlaydi.

Tanqidiy psixologiya esa ta'lim jarayonini ideologik, siyosiy va ijtimoiy kontekstda tahlil qiladi. Bu yondashuv ta'limni insonni ozod etuvchi vosita sifatida ko'radi, o'quvchini esa ijtimoiyadolat kurashchisi, faol subyekt sifatida baholaydi. Ushbu maqolada tanqidiy psixologiyaning pedagogikaga bo'lgan yondashuvi, o'quvchi-o'qituvchi munosabatlari, ta'limda tengsizlik va ongni uyg'otish g'oyalari ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism

Tanqidiy psixologiya XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa, 1960–70-yillarda G'arbda rivojlandi. Bu yondashuv jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, sinfiy farq, irqiy va gender kamsitishlarga e'tibor qaratib, psixologiyani inson ruhiyatini emas, balki uning ijtimoiy hayot bilan aloqasini tahlil qiluvchi fan sifatida talqin etdi. Klaus Holzkamp, Paulo Freire, bell hooks, Henry Giroux singari olimlar psixologiya va ta'lim o'rtasidagi bevosita aloqani chuqr yoritgan.

Paulo Freire, tanqidiy pedagogikaning asoschisi sifatida, o'qitish jarayonini "ozodlik pedagogikasi" deb ataydi. Uning fikricha, an'anaviy ta'lim modeli o'quvchini passiv qabul qiluvchi sifatida ko'radi: o'qituvchi "bilim donishi", o'quvchi esa "bo'sh idish"dir. Freire buni "bank uslubi" deb atab, uni tanqid qiladi. Aksincha, u dialogga

Date: 21st May-2025

asoslangan, muammoli o‘qitish usulini taklif etadi. Bu usulda o‘quvchi haqiqatni topuvchi, savollar beruvchi, faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tanqidiy psixologiyada o‘quvchi shaxsning o‘z ijtimoiy muhitiga nisbatan ongli yondashuvi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi faqat bilim emas, balki o‘zini anglash, jamiyatdagi o‘rnini tushunish,adolatsizliklarga qarshi fikr yuritish imkoniyatini oladi. Bunday yondashuv shaxsiy o‘sish bilan bir qatorda, jamiyatning o‘zgarishiga ham xizmat qiladi.

Ta’lim tizimidagi ijtimoiy tengsizliklar — sinfiy tafovutlar, madaniy farqlar, irqiy va gender stereotiplari — ko‘pincha psixologik jihatdan izohlab berilmaydi. Masalan, kambag‘al oilalardan chiqqan o‘quvchilar ko‘pincha “motivatsiyasi past” yoki “ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlanmagan” deb talqin qilinadi. Aslida esa bu — ijtimoiy tizimlarning noto‘g‘ri ishlashi natijasidir. Tanqidiy psixologiya bunday muammolarni individual psixik muammolar emas, balki strukturaviy muammolar sifatida ko‘rib chiqadi.

bell hooks — afroamerikalik tanqidiy pedagog va psixolog — ta’lim jarayonini “sevgiga asoslangan qarshilik” deb ta’riflaydi. U o‘qituvchining shunchaki bilim beruvchi emas, balki ijtimoiy ongni uyg‘otuvchi rolini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ijtimoiy haqiqatlar bilan tanishtirish, ularni his qilish va unga nisbatan o‘z pozitsiyasini aniqlash muhimdir.

Tanqidiy psixologik yondashuv o‘qituvchini ham qayta baholashga chaqiradi. O‘qituvchi avtoritar kuch emas, balki hamfikr, hamkor, o‘quvchi bilan birga o‘rganayotgan subyekt sifatida tasvirlanadi. Bu modelda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ierarxiya yemirilib, ular teng huquqli fikr almashuvchilar sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, tanqidiy psixologiya ta’limning siyosiyigini tan oladi. Har bir dars, har bir mavzu, har bir savol — bu muayyan ideologiyaning mahsuli bo‘lishi mumkin. Masalan, tarixni qanday o‘rganamiz? Kimlarning ovozi tinglanadi, kimlarniki yo‘q? Aynan shunday savollar tanqidiy pedagogikaning markazida turadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchi shunchaki “bilim oluvchi” emas, balki “bilim yaratuvchi”ga aylanishi ko‘zda tutiladi.

Tanqidiy psixologiyaning ta’lim tizimidagi o‘rni chuqur ijtimoiy va madaniy kontekstga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. An’anaviy psixologiya ko‘pincha o‘quvchining individual qobiliyatları, intellekt darajasi yoki motivatsiya kabi ichki xususiyatlariga urg‘u bergen bo‘lsa, tanqidiy psixologiya bu yondashuvni tor va ijtimoiyadolatsizliklarni e’tiborsiz qoldiruvchi deb hisoblaydi. U o‘quv jarayonida ijtimoiy tabaqalanish, madaniy tafovutlar, til, gender va sind muammolarini markaziy masala sifatida ko‘radi.

Tanqidiy psixologiya ta’lim tizimini insonlarni tayyor qolipga solish vositasi sifatida emas, balki ularning fikrlash erkinligini shakllantirish, ijtimoiy ongini uyg‘otish va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish vositasi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv Paulo Freyre kabi pedagoglarning g‘oyalari bilan hamohang bo‘lib, “jim o‘quvchi – faol o‘quvchi” modelini inkor etadi va buning o‘rniga ikki tomonlama muloqotga asoslangan, emansipator ta’limni ilgari suradi.

Tanqidiy psixologiyaning ta’limdagi yondashuvi o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi passiv rolining rad etilishi, ular hayotiy tajribasining qadrlanishi va har bir

Date: 21st May-2025



shaxsning ijtimoiy kontekstda rivojlanishini nazarda tutadi. Bu nuqtai nazardan qaraganda, o‘quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi, sinfiy maqomi, madaniy identiteti yoki ona tili o‘quv jarayonining markazida bo‘lishi lozim. An’anaviy tizim bunday farqlarni “muammo” yoki “kamchilik” sifatida ko‘rsa, tanqidiy psixologiya bu farqlarning o‘zini ta’limda imkoniyat sifatida ko‘radi.

Shuningdek, tanqidiy psixologiya ta’limdagi baholash tizimiga ham tanqidiy qaraydi. Standart testlar va o‘quv yutuqlarining umumiy mezonlari ijtimoiy adolatsizliklarni chuqurlashtirishi mumkin, chunki bu baholash usullari ko‘pincha o‘quvchilarning turli ijtimoiy sharoit va madaniy kontekstlarini hisobga olmaydi. Bu esa bilim olishdagi tengsizlikni qonuniylashtiradi. Shu sababli, tanqidiy psixologik yondashuvlar alternativ baholash shakllari — refleksiv yozuvlar, loyiha asosidagi o‘rganish, jarayonni baholash kabi metodlarni ilgari suradi.

Bundan tashqari, tanqidiy psixologiya ta’lim tizimining ideologik tabiatini ham fosh qiladi. Ya’ni, maktablar va universitetlar nafaqat bilim beruvchi, balki mavjud ijtimoiy tizim va kuch muvozanatini saqlovchi institutlar sifatida ko‘riladi. Shu sababli, tanqidiy psixologlar ta’lim orqali insonni “moslashtirish” emas, balki ijtimoiy jarayonlarni tanqidiy tahlil qilishga undovchi, faol va ongli shaxs sifatida shakllantirishni maqsad qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy psixologiyaning ta’lim tizimidagi o‘rni — o‘quvchini markazga qo‘yish, ijtimoiy adolatni ta’minalash, ongli fuqarolikni shakllantirish va ta’limni insoniylashtirishga qaratilgan chuqur ijtimoiy-pedagogik harakatdir. Bu yondashuv amalda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatni o‘zgartirish, ta’limdagi madaniy tengsizliklarni kamaytirish va ko‘proq inkluziv, kontekstual hamda ishtirokchilik asosidagi o‘qitish shakllarini joriy etishni taqozo etadi.

Xulosa

Tanqidiy psixologiyada pedagogika va ta’lim muammolarini yoritish — bu insonni faqat psixik tizim emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida tushunishga intilishdir. Ushbu yondashuv ta’limni siyosiy, madaniy va ijtimoiy adolat bilan bog‘laydi. O‘quvchi shunchaki axborot qabul qiluvchi emas, balki ongli subyekt, o‘zining haqiqatini shakllantiruvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

Tanqidiy psixologiya o‘qituvchini yangi rolga — ijtimoiy ongni uyg‘otuvchi, erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga chaqiradi. Shu bilan birga, ta’lim tizimidagi mavjud tengsizliklar, kamsitishlar va stereotiplar bilan kurashish uchun psixologik vositalarni taklif etadi. Bu yondashuv hozirgi globallashgan, ammo tengsizliklarga to‘la dunyoda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tanqidiy pedagogika va psixologiya birgalikda insonni o‘zgartirish bilan birga, jamiyatni ham o‘zgartirishga xizmat qiluvchi kuchga aylanadi. Shu bois, ta’limga tanqidiy yondashuvni joriy etish har qanday rivojlanayotgan jamiyat uchun zarur strategik yo‘nalishdir.

Date: 21st May-2025

ADABIYOTLAR:

1. Ravshanovich, A. O. HISSIY ZO 'RIQISHLAR VA OBSESSIYALARDAN XALOS BO 'LISH USULLARI VA TAVSIYALAR. ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ, 87.
2. Ravshanovich, A. O. (2024). O 'RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARINING TIBBIYOT VA PSIXOLOGIYA SOHASIDAGI NAZARIYALARI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 3(28), 85-91.
3. Sattorovich, E. Z. (2024). O 'SMIRLARDA SUITSIDIAL HOLATLARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. PEDAGOG, 7(5), 31-37.
4. Sattorovich, E. Z. (2024). SUD PSIXOLOGIK EKSPERTIZASI TARIXI RIVOJLANISH JARAYONI BOSQICHLARI. PEDAGOG, 7(4), 306-313.
5. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 386-388.
6. Mahmudova, N. H. (2023). Influence of family environment on personal socialization. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 440-446.
7. Nigora Hikmatovna Mahmudova. (2023). BASIC TASKS OF TEACHING THE SCIENCE OF "EDUCATION" IN PRIMARY GRADES. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 447–452.
8. Hikmatovna, M. N. (2024). Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 31-43.
9. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. In НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 10-12).
10. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. Universum: технические науки, (4-1 (109)), 41-43.
11. Сайфуллаева, Н. Б. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ КЛАССНЫХ УРОКОВ. Вестник науки и образования, (15-3 (118)), 40-42.
12. Бурхонова, Ш. И., Негмаджанов, Б. Б., Раббимова, Г. Т., & Валиев, Ш. Н. (2020). Сравнительная оценка некоторых результатов операций с применением нижнесрединного разреза и доступа по Joel-Cohen в неотложной акушерской практике. Достижения науки и образования, (3 (57)), 79-83.
13. Валиев, Ш. Н., & Негмаджанов, Б. Б. СЛУЧАЙ ПОСЛЕОПЕРАЦИОННОГО МОЛНИЕНОСНОГО СЕПТИЧЕСКОГО ШОКА, ВЫЗВАННОГО АНАЭРОБНОЙ ИНФЕКЦИЕЙ У ЖЕНЩИНЫ С АУТОИММУННЫМ ГЕПАТИТОМ. JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH, 50.
14. Шухрат Насимович Валиев. (2024). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПЕРАЦИЙ КЕСАРЕВА СЕЧЕНИЯ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ОПЕРАЦИОННОГО ДОСТУПА В ЭКСТРЕМНЫХ СИТУАЦИЯХ . TADQIQOTLAR.UZ, 51(5), 120-124.

Date: 21st May-2025

15. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск)*, (23), 127-130.
16. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 277-284.
17. Xaqqulova, D. (2024). ABDURAHMON GO 'ZAL-YASSAVIYSHUNOS. *PEDAGOG*, 7(6), 8-15.
18. Xaqqulova, D. (2024). ADABIYOTSHUNOS OLIM ABDURAHMON GO 'ZALNING TADQIQOTLARI XUSUSIDA. *PEDAGOG*, 7(5), 548-555.
19. XAQQULOVA, D. (2023). BADIYLIK MASALALARI TADQIQIDA OLIM MAHORATI. *Наука и технология в современном мире*, 2(5), 5-11.
20. Abduvasiyevna, X. D. (2024). SO 'Z TUZILISHI VA SO 'Z YASASH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 261-266.
21. Abduvasiyevna, X. D. (2024). NUTQ MADANIYATI VA OG 'ZAKI MULOQOT. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 255-260.
22. Ikromova, S. A. (2024). PSIXOLOGIK REabilitatsiya VA MUAMMOLI SHAXSLAR BILAN ISHLASH. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 111-116.
23. Ikromova, S. A. (2024). TUGISH VA OTA-ONA BO'LISHNING PSIXOLOGIK ASOSI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 117-122.
24. Икромова, С. А. (2024). ПСИХОЛОГИЯ ЛИЧНОСТИ И ВНУТРЕННИЙ МИР ЧЕЛОВЕКА. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 53-58.
25. Akbarovna, I. S. (2024). MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANISHINING AHAMIYATI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 900-905.
26. Ikromova, S. A. (2024). PSIXOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING DAVOLASH USULLARI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 75-80.
27. Икромова, С. А. (2024). ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ. New modern researchers: modern proposals and solutions, 1(2), 22-28.
28. Hojiyeva Nasiba Bahodirovna. (2024). Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitish muammosining yoritilish mazmuni. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 200-206.
29. Hojiyeva Nasiba Bahodirovna. (2024). THE SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL TRAINING IN PRIMARY CLASSES. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 439-447.
30. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI.
31. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN

Date: 21st May-2025

- PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. Modern Science and Research, 2(9), 424-428.
32. Hojiyeva, N. (2023). THE SUBJECT AND TASKS OF THE METHOD OF TEACHING THE MOTHER TONGUE IN PRIMARY GRADES. Modern Science and Research, 2(10), 855-857.
33. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.
34. Bahodirovna, H. N. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O 'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. PEDAGOGS jurnalı, 1(1), 209-209.
35. Bahodirovna, H. N. (2023). Methodological Foundations of Teaching the Science of "Education" in Primary Grades. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 369-372.
36. Hojiyeva, N. B. (2023). MODERN METHOD IN TEACHING MOTHER LANGUAGE LESSONS-USING THE CACOGRAPHY METHOD. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 434-439.
37. Bahodirovna, H. N. (2024). DEVELOPMENT OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON EDUCATIONAL COMPETENCIES. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(4), 203-208.
38. Bahodirovna, H. N. (2024). AND ESSENCE OF THE EDUCATIONAL PROCESS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 328-333.
39. Bahodirovna, H. N. (2023). Prognosis of Placental Insufficiency in Pregnant Women Treated for Coronavirus. *Eurasian Medical Research Periodical*, 20, 228-236.
40. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA FANINI O'QITISHNING ASOSIY METOD VA VOSITALARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 332-338.
41. Jo'Rayeva, D. O. (2024). EDUCATIONAL VIEWS OF PEDAGOGUES TOWARDS THE ENVIRONMENT. *Экономика и социум*, (4-1 (119)), 194-197.
42. Oktamovna, J. R. D. (2025). BO 'LAJAK TARBIYACHILAR VA PEDAGOGLARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BAHOLASH MEXANIZMLARI. *Recent scientific discoveries and methodological research*, 2(2), 104-110.
43. Tursunovna, B. G. (2024). UPDATING AND CONDUCTING THE QUALITY OF PRIMARY EDUCATION ON THE BASIS OF MODERN METHODS. In Forum for Linguistic Studies (Vol. 6, No. 1, pp. 242-248).
44. Baxronova, G. T. (2024). EGRA AND EGMA INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS AND TEACHING PRIMARY CLASS STUDENTS TO THINK INDEPENDENTLY THROUGH THEM. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 12(2), 152-154.

Date: 21st May-2025

45. Tursunovna, B. G. (2024). EGMA TADQIQOTI O 'QITISH VA TA'LIM OLISH SHAROITLARINI O 'RGANISH XALQARO TADQIQOTI. Ta'lif innovatsiyasi va integratsiyasi, 12(2), 146-148.
46. Камилова, Н. Г. (2008). Совершенствование процесса ресоциализации как важное условие эффективной социальной адаптации и интеграции в социум воспитанников пенитенциарных заведений. *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития*, 6, 285-288.
47. Камилова, Н. Г. (2009). Психологические особенности ресоциализации подростков–воспитанников специализированных учебных заведений для трудновоспитуемых. *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития*, 7, 404-407.
48. Камилова, Н. Г., & Саипова, М. Л. (2012). Дифференцированный подход к субъекту обучения как важное условие модернизации образования в высшей школе. *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития*, 10(1), 278-279.
49. Камилова, Н. Г. (2015). ФОРМИРОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ПОДРОСТКОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ. In *ИННОВАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ: ПОИСКИ И РЕШЕНИЯ* (pp. 651-653).
50. Камилова, Н. Г. (2015). Фruстрационная толерантность как фактор социальной адаптации подростков с девиантным поведением. *Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы*, (5), 69-72.
51. Камилова, Н. Г. (2016). Девиант ахлоқли болалар учун ихтисослаштирилган муассасалар тарбияланувчилари ресоциализациясининг психологик-педагогик модели. *Современное образование (Узбекистан)*, (9), 16-23.
52. Камилова, Н. Г. (2015). Формирование психологической культуры у подростков–важный механизм профилактики нарушений в развитии личности. *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития*, 2(13), 464-466.
53. Камилова, Н. Г. (2000). Особенности самооценки подростков с девиантным поведением (Doctoral dissertation, дис.... канд. психол. наук).
54. Валиев, Ш. Н. (2025). РОЛЬ ВЫБОРА ХИРУРГИЧЕСКОГО ДОСТУПА В ФОРМИРОВАНИИ ПЕРИНАТАЛЬНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРИ КЕСАРЕВОМ СЕЧЕНИИ. *Достижения науки и образования*, (2 (100)), 27-31.
55. Валиев, Ш. Н. (2025). ОСОБЕННОСТИ ВОСПАЛИТЕЛЬНОЙ И РЕПАРАТИВНОЙ РЕАКЦИИ ТКАНЕЙ МАТКИ ПРИ УШИВАНИИ РАЗЛИЧНЫМ ШОВНЫМ МАТЕРИАЛОМ: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ ПОДХОД. *Достижения науки и образования*, (2 (100)), 31-35.
56. Toyirova, D. S. (2024). KICHIK MAKTAB YOSIDAGI O 'QUVCHILARDAR AQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH KO 'NIKMALARINI TARBIYALASHNING MAZMUNI. SCHOLAR, 2(5), 106-114.

Date: 21st May-2025

57. Sattorovna, T. D. (2025). KICHIK YOSHDAGI O ‘QUVCHILARDA RAQAMLI SAVODXONLIK KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING USULLARI. IMRAS, 8(2), 101-104.
58. Erkinovna, S. D. (2025). BUXORO ADABIY MUHITIDA MUSIQA ILMINING O ‘QITILISHI. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 2(2), 64-69.
59. Saidova, D. E. (2024, August). ACTIVITIES OF THE JADIDS IN THE FIELD OF MUSICAL EDUCATION AND EDUCATION. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 21, pp. 236-246).
60. Erkinovna, S. D. (2025). BUXORO ADABIY MUHITIDA MUSIQAGA OID QARASHLAR (XIX OXIRI XX ASR BOSHLARIDA). Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 2(2), 47-52.
61. Sobirovna, S. Y. (2022). PEDAGOGNING KREATIVLIGI BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHINING ZARUR SHARTI. *PEDAGOOGS jurnali*, 1(1), 219-220.
62. Sobirovna, S. Y. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O ‘QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOOGS jurnali*, 1(1), 158-160.
63. Sobirovna, Y. S. (2023). Methods and Tools of Economic Education in Preschool Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 109-115.